

ZAMONAVIY JAMIYATDA ILMIY VA DINIY BILIMLAR MUTANOSIBLIGINI TA'MINLASH ZARURATI

¹Koshanova Nilufar Maxsudovna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti (PhD)

²Tadjibayeva Ruxshona Oktamovna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

THE NEED TO ENSURE THE BALANCE OF SCIENTIFIC AND RELIGIOUS KNOWLEDGE IN MODERN SOCIETY

¹Koshanova Nilufar Maksudovna, Associate Professor (PhD) of Chirchik State ²Pedagogical University

Tadzhibayeva Rukhshona Oktamovna, Teacher of Chirchik State Pedagogical University

НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БАЛАНСА НАУЧНОГО И РЕЛИГИОЗНОГО ЗНАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

¹Кошанова Нилуфар Максудовна, доцент Чирчикского государственного педагогического университета, (PhD)

²Таджибаева Рухшона Октамовна, преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda bugungi globallashuv sharoitida ma'naviy tanazzul, nigilizm holatlari dunyoning turli chekkalarida rivojlanayotgan bir paytda inson ma'naviy kamolotini ta'minlashda ilmiy va diniy bilimlar uyg'unligini ta'minlashning bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: texnogen sivilizatsiya, din, fan, zamonaviy jamiyat, sekulyarizatsiya, fenomen, nomuvofiqlik, ziddiyat, dialog va integratsiya, obskurantizm.

Annotation: This article highlights the importance of ensuring the harmony of scientific and religious knowledge in ensuring the spiritual maturity of a person in today's globalization environment, where spiritual decline and nihilism are developing in different parts of the world.

Keywords: technogenic civilization, religion, science, modern society, secularization, phenomenon, incompatibility, conflict, dialogue and integration, obscurantism.

Аннотация: В статье подчеркивается важность обеспечения гармонии научного и религиозного знания в обеспечении духовной зрелости человека в современных условиях глобализации, когда в разных частях света развиваются духовный упадок и нигилизм.

Ключевые слова: техногенная цивилизация, религия, наука, современное общество, секуляризация, феномен, несовместимость, конфликт, диалог и интеграция, мракобесие.



<https://orcid.org/0009-0002-6861-6568>

e-mail:

koshanovanilufar512@gmail.com



<https://orcid.org/0009-0002-5770-4466>

e-mail:

ruxshonatadjibayeva1707@gmail.com

KIRISH. Din – insonni ma'naviy-ruhiy poklovchi, odamzodni yomonlikdan, yovuzlikdan qaytaruvchi, ma'naviy yetuklikka chorlovchi ijtimoiy hodisa, fenomendir. Din jamiyatda insonlarning mashaqqatli hayot yo'llarida umid bilan yashashiga, og'riqli yo'qotishlarida esa yupanishiga, yaxshi-yomon kunlarida birdam bo'lishga, har bir jabhada halol va adolatli bo'lishiga, insoniy xususiyatlarini saqlab turishiga xizmat qiluvchi omildir. Ilm ham, din ham haqiqatni bilishga intiladi. Har ikkalasida ham olamning kelib chiqishi, inson va uning dunyodagi o'rni, inson hayotining mazmuni tushuntiriladi. Fan va din o'rtasidagi muloqot inson borlig'ining mohiyati bilan bog'liq bo'lib, unda materiya olami va ruh olami birlashgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Diniy va ilmiy bilimlarning uyg'unligini ta'minlash masalasi ko'plab tadqiqotchilar diqqat markazida turgan ilmiy mavzulardan biridir. Dinning jamiyatdagi o'rniga yangi davr mutafakkirlari R.Dekart, nemis klassik falsafasining yorqin namoyandalaridan I.Kant, Gegel e'tibor qaratgan. Mahalliy tadqiqotchilardan A.Ochildiyev, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, MDH tadqiqotchilaridan D.X.Bruk, L.Roslovskaya, M.Talalushkinalar tomonidan o'rganilgan.

MUHOKAMA. Bugungi zamonaviy jamiyatda din va fan o'rtasidagi munosabatlar noaniq bo'lib qolmoqda. Faylasuflar, ilohiyatchilar va olimlar vaqti-vaqti bilan o'z tadqiqotlarida ushbu mavzuga murojat qilishadi. Ammo ular o'rtasidagi munosabatlarning tabiati bo'yicha yagona nuqtayi nazar mavjud emas. Fan va din muloqoti nafaqat gnoseologik, balki ijtimoiy-tarixiy jihatlariga ham ega. Ko'p asrlar davomida sivilizatsiya o'zining qadriyatlari, ana'analari, xulq-atvor shakllari, ijtimoiy institutlar, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy ko'rsatmalarini dindan tortib oladi. Sekulyarizatsiya, avvalo g'arb hodisasi sifatida din va davlat hokimiyati o'rtasiga chegara qo'ygan, ilm-fanga murojaat qilgan zamonaviy davrda paydo bo'lgan va rivojlangan edi. Uning tarixi bir necha asrlarni o'z ichiga oladi. Dunyoni o'rganishning ikki shakli o'rtasidagi muloqot, ayniqsa bugungi globallashuv sharoitida juda muhimdir. Din va fan o'rtasidagi munozara azaldan davom etib kelayotgan masalalardan

bo'lib, ko'plab olimlar din va fan o'rtasidagi muloqot imkoniyatlarini o'rganish va uning chegaralari aniqlash masalasiga qiziqib kelishgan.

Uzoq tarixiy davrdagi din va fan munosabatlarini o'rganishda ayniqsa o'rta asrlar davrini tahlil qilish lozim bo'ladi. Sababi din va fan o'rtasidagi katta jarlik ayniqsa o'rta asrlarda katolik cherkovi hukmronligi davrida kuchaydi. Katolik cherkovi uzoq vaqt fanning rivojlanishiga to'siq bo'lib kelgan. Tibbiyot sohasida kasalliklarning manbai sifatida gunohlarning ko'payib ketganligida, ya'ni g'ayritabiiylikda deb hisoblangan.

Endilikda din emas, balki fan dunyoning, insonning qanday paydo bo'lganligi, materiyaning qanday tuzilganligini tushuntirib bera boshladi. Natijada fan va din odamlari o'rtasida haqiqatni anglash uchun kurash boshlandi. Ammo ayni paytda ko'plab olimlar fan va dinni uyg'unlikda yashashi lozimligini yaxshi tushungan e'tiqodli kishilar edi[2]. Uzoq davrlardan buyon din va fan o'rtasidagi munosabatlarda quyidagi mazmundagi savollar ko'ndalang bo'lib kelgan:

- fan bilan shug'ullanish dindan uzoqlashtirmaydimi?
- fan bilan shug'ullanish, ayniqsa falsafa fani kishilarni ateist qilib qo'ymaydimi?
- din jamiyatda ilm-fan bilan birga yashay oladimi va hokazo.

Ilm-fan va din o'rtasidagi iliq munosabatlar yaqin davrlarda yuzaga keldi deya olamiz. Fan va dinni dunyoni angalashning ikki xil usuli sifatida ko'rishimiz mumkun. Ularning samarali muloqoti, o'zaro ta'siri orqali inson o'zini o'rab turgan narsalar orqali o'zini o'rab turgan narsalar haqida to'liq tasavvurini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Fikrimizcha fan va din o'rtasidagi tortishuv ularda bilimning yuzakiligidan kelib chiqadi. Sababi ilmga chuqur kirgan olimlar oxir-oqibatda Xudoga bo'lgan ishonchini tasdiqlaganlar. Insonlar qanchalik kashfiyotlar qilgani sayin olam haqida shunchalik kam bilishlarini anglab boradilar.

Din va fan orasidagi jarlik ayniqsa yangi davr olimlari davrida rivojlandi. Chunki yangi diniy g'oyalar yangi davrning ko'plab olimlari tomonidan yot narsa sifatida qaralar, bu esa o'z navbatida haqiqatda monopoliya edi. Ammo eng ilg'or tadqiqotchilar, olim va faylasuflar bu nuqtayi nazarga qo'shilmaganlar. Ammo eng

ilg'or tadqiqotchilar, olim va faylasuflar bu nuqtayi nazarga qo'shilmaganlar. Shu o'rinda I.Kantning ilmga chuqur hurmat bilan qarash kerak, ammo ortiqcha baho bermaslik kerak degan fikrlari o'rinli aytilgan deb hisoblaymiz. Bu fikri bilan u ochiqdan-ochiq iymonga yo'l ochish uchun ilmning cheklanishi yoki, unga teskari holat noto'g'ri ekanligini aytadi. Hozirgi kunda fan haqiqatga monopoliya emasligi va ilmiy bo'lmagan bilimlarning ko'plab turlari mavjudligi bizga ma'lum[3].

Din, fan va falsafa ma'naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismlari bo'lib, bir-biriga doimo uyg'unlikda mavjud bo'lib kelgan. XX asrning o'rtalarida fizika sohasida global inqilob yuz berdi. Kvant mexanikasida inson ilmiy nazariya tarkibiga organik ravishda kiritilganligi ma'lum bo'ldi. Undan keyin ijtimoiy omillar ham fanning muhim tarkibiy qismlari ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu esa ilm-fan falsafa va dinni uyg'unlashtirishi uchun yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Amerikalik olim I.Barbourning "Din va fan: tarix va zamonaviylik" nomli asarida fan va din o'rtasidagi munosabatlar o'z aksini topgan [1].

Turli tarixiy kontekstlarda fan va din o'rtasidagi munosabatlarda to'rtta pozitsiya mavjud bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bular: integratsiya, mustaqillik, ziddiyat va dialog. Bunda integratsiyaning maqsadi fan va dinni yagona fanga birlashtirish hisoblanadi. Fan va dinning integratsiyasining eng yorqin ko'rinishi uyg'unish va yangi davrda namoyon bo'ladi. XVII asrning ba'zi mutafakkirlari o'z tadqiqot ishlarini aqlli Yaratuvchi tomonidan boshqariladigan koinotdagi tartibli izlash deb e'lon qildi. Jumladan, ingliz faylasufi Rene Dekart o'z ilmiy yutuqlari haqida "Tabiatga Xudo tomonidan berilgan qonunlarni" kashf qilganini aytadi. Isaak Nyuton quyosh tiziminin tartibligi "Oqilona va qudratli mavjudotning kengashi va kuchini" nazarda tutadi.

Iogannes Kepler geometriyani ochib berish orqali siz Xudodan keyin uning firklarini takrorlaysiz, degan fikrlari asosida din va fan uyg'unligiga shama qiladi. Frensis Bekon "Faqat tabiat haqidagi yuzaki bilim bizni Xudodan uzoqlashtirilishi mumkun, aksincha chuqurroq o'rgangani sayin sizni qaytaradi", -deydi.

Ilm-fan va dinning jamiyatdagi vazifalarini tahlil qiladigan bo'lsak, dinning asosiy vazifalaridan biri har bir insonga hayotda o'zligini anglash, bilish va o'z o'rini topishga yordam berish hisoblansa, ilm-fan atrofdagi dunyo va uning qonuniyatlarini o'rganishga urg'u beradi. Bu ikkala soha ham inson uchun birdek ahamiyatli va zarurdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Брук, Дж. Х. Наука и религия: Историческая перспектива / Пер. С англ. / Дж. Х. Брук, пер. с англ. Л. Сумм. – Москва: Библийско-богословский институт св. апостола Андрея, 2004. – 352 с.
2. Рословская Л., М.Талалушкина. Наука и религия: возможности и границы диалога.// Философско-методологические проблемы: коммуникация информация, технонаука.
<https://scienceforum.ru/2016/article/2016025926>
3. И.Т.Касавина. Знание за пределами науки / под ред. М., 1996.
4. Imamova U. I. The internet and its importance in youth education //Confrencea. – 2023. – т. 6. – №. 6. – с. 79-81.
5. Саидусманов Б.А. Ўзбекистонда транспорт тизими тарихи (XX асрнинг иккинчи ярмида Тошкент вилояти мисолида) //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 7. – С. 72-74.

